



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 27-avgust

435-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashini tashkil etish to‘g‘risida” 2024-yil 23-iyuldagi PF-106-son Farmoni ijrosi haqida”gi 397-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashini tashkil etish to‘g‘risida” 2024-yil 23-iyuldagi PF-106-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-avgustdagi 397-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosinitumanda ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-avgustdagi 397-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

Ekologiya vazirligining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashini (keyingi o‘rinlarda – Iqlim kengashi) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

belgilanishicha:

Iqlim kengashi iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi eng yuqori maslahat organi hisoblanishi;

Iqlim kengashining yig‘ilishlari bir kalendar yil davomida uch marta yalpi majlislar (yiliga bir marta) va oraliq majlislar (yiliga ikki marta) shaklida tashkil etilishi;

quyidagilar Iqlim kengashining asosiy vazifalari etib belgilanganligi:

Iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo‘yicha milliy strategiyani hamda ushbu yo‘nalishda yagona davlat siyosatini shakllantirish;

vazirlik va idoralarning iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo‘yicha yagona davlat siyosatini samarali amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi doiraviy konvensiyasi (keyingi o‘rinlarda – Konvensiya) va Parij bitimidan kelib chiqadigan O‘zbekiston Respublikasining majburiyatlari bajarilishi monitoringini yuritish;

iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo‘yicha tashqi siyosatni amalga oshirishning yillik ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;

iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish masalalarida normativ-huquqiy hujjatlar bazasini takomillashtirish;

“yashil” texnologiyalar, ilmiy izlanishlar va innovatsiyalarni o‘z ichiga olgan iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashishga yo‘naltirilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun resurslar bilan ta‘minlash va moliyalashtirishga, shu jumladan, investitsiyalar jalb qilishga ko‘maklashish;

quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqlim kengashi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqlim kengashi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

Iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo‘yicha milliy strategiyani hamda ushbu yo‘nalishda yagona davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Ekologiya vazirligi huzuridagi davlat muassasasi shaklidagi Yashil transformatsiya va iqlim o‘zgarishiga moslashish milliy markazi Iqlim o‘zgarishi milliy markazi (keyingi o‘rinlarda – Iqlim markazi) deb qayta nomlanganligi;

Iqlim markazining asosiy vazifa va vakolatlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Farmonga 5-ilovada keltirilgan vazirlik va idoralar ikki hafta muddatda mavjud shtat birliklari doirasida 2-3 shtat birligidan iborat bo‘lgan ekologik diplomatiya bo‘limlarini tashkil etishi;

Ekologik diplomatiya bo‘limlarining asosiy vazifalari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Ilmiy va akademik salohiyatni oshirish hamda fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universitetida (Green University) Iqlim ilmiy forumi (rezidensiyasi) (keyingi o‘rinlarda – Iqlim rezidensiyasi) tashkil etilganligi;

Ekologiya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

2024-yil 1-sentabrga qadar iqlim o‘zgarishi bo‘yicha strategiyalarni ishlab chiqishda hamkorlik qilinadigan xalqaro moliya institutlari, asosiy xalqaro tashkilotlar hamda amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari ro‘yxatlarini Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

ikki oy muddatda vazirlik va idoralar bilan o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish hamda ish samaradorligini oshirish uchun Iqlim markaziga ekologik diplomatiya bo‘limlarining tasdiqlangan xodimlar ro‘yxatini taqdim etishi;

to‘rt oy muddatda Iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo‘yicha milliy strategiyaga kiritish uchun iqlim o‘zgarishi sohasidagi istiqbolli investitsiya loyihalari bo‘yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

2025-yil 1-yanvarga qadar iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo‘yicha yagona davlat siyosati to‘g‘risidagi qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

2025-yil 1-oktabrga qadar iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo‘yicha sohalar strategiyalarini Iqlim markazi bilan kelishgan holda ishlab chiqishi va Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

2026-yil 1-yanvarga qadar Iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo‘yicha milliy strategiya to‘g‘risidagi qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi uglerod birliklari savdosi bozorini rag‘batlantirish, shuningdek, ushbu yo‘nalishda amalga oshirish uchun loyihalarni jalb etish, iqlim o‘zgarishi sohasida ilmiy salohiyatni oshirish maqsadida:

a) Ekologiya vazirligi bilan birgalikda:

2024-yil 1-oktabrga qadar Yashil iqtisodiyot milliy taksonomiyasidan kelib chiqqan holda tabiatga asoslangan yechimlarni (Nature Based Solutions) qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rilishini;

2026-yil 1-yanvarga qadar muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va o‘rmon xo‘jaliklari, shuningdek, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish jarayonida barpo etilgan yashil maydonlar hisobiga hosil bo‘ladigan uglerod kvotalari savdosi mexanizmi tasdiqlanishini;

b) ikki oy muddatda iqlimshunoslik, iqlimni modellashtirish, qum va chang bo‘ronlari, iqlimni moliyalashtirish, iqlim xatarini tahlil qilish, uglerod bozori, qayta tiklanadigan manbalar, shaharsozlik yo‘nalishlari bo‘yicha ikki yil davomida Iqlim markazida ishlashga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish uchun ilmiy loyihalarni moliyalashtirishga mo‘ljallangan budjet mablag‘lari ajratilishini ta‘minlashi;

belgilab qo'yilishicha, O'zbekiston Respublikasi tomonidan tasarruf etiladigan uglerod birliklari savdosi natijasida hosil bo'ladigan mablag'larning 20 foizi Ekologiya vazirligi huzuridagi Ekologiya jamg'armasiga, qolgan qismi iqlim o'zgarishiga moslashish va uning ta'sirini yumshatish, ekologiya sohasidagi dasturlar, tadbirlarning amalga oshirilishiga hamda atrof-muhitni muhofaza qilish, sirkulyar va yashil iqtisodiyot, chiqindilarni boshqarish bilan bog'liq sohalarga yo'naltirish uchun respublika budjetiga yo'naltirilishi;

Ekologiya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2024-yil 1-dekabrga qadar amaldagi qonunchilikni iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish nuqtai nazaridan takomillashtirish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 7-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi

Ekologiya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi (A.Karimov) manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashini tashkil etish to'g'risida" 2024-yil 23-iyuldagi PF-106-son Farmoni talablaridan kelib chiqib ish tashkil etsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni tuman hokimining o'rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov